

## KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA CHET TILINI O'QITISHNING AHAMIYATI VA UNDA ZAMONAVIY METODLARNING O'RNI

*Begimkulova Dilobar*

*Qarshi davlat universiteti katta o'qituvchisi*

*Rustamova Mohinur*

*Qarshi davlat universiteti 2-bosqich talabasi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab, ularni mamlakatimizda samarali o'rganish masalalari va maktabgacha ta'lim muassasalarida tahsil oluvchi bolalarga turli metodlar orqali tez va qisqa muddatda til o'rgatish haqida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Pedagogik metodlar, metodika, til muhiti, lug'atlar, bola rivojlanishi bosqichlari, Duolingo, Memrise, Bamboozle.

### THE IMPORTANCE OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO YOUNG CHILDREN AND THE ROLE OF MODERN METHODS IN IT

#### ANNOTATION

This article discusses the demand for learning foreign languages, the issues of their effective learning in our country, and language teaching to children studying in pre-school educational institutions through various methods in a quick and short period of time.

**Key words:** Pedagogical methods, methodology, language environment, dictionaries, stages of child development, Duolingo, Memrise, Bamboozle.

#### KIRISH

Hammamizga ma'lumki, biz texnika va texnologiyaning taraqqiyot bosqichida yashamoqdamiz, globallashuv natijasida ro'y berayotgan har qanday yangiliklar, axborotlar, kunlik kashfiyotlar-u ixtirolar ham soat sayin yangilanmoqda. Shu asnoda, chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab nafaqat mamlakatimizda, balki butun jahon davlatlarida keng targ'ib qilinmoqda, turli pedagogik usul va metodlar, til o'rganishga mo'ljallangan elektron darsliklar va bepul ilovalar, sun'iy intellektga asoslangan shaxsiy o'qituvchilar yoshlar uchun allaqachon doimiy foydalaniladigan vositalar bo'lishga ulgurdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning sa'y-harakatlari bilan Vazirlar Mahkamasi huzurida Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish agentligi yo'lga qo'yildi. Ushbu agentlik tomonidan 10 ta chet tili (rus, nemis, ingliz, koreys, xitoy, fransuz tillari) ga oid yangi metodikalar, dasturlar va darsliklar yaratilmoqda.

Qolaversa, til bilish darajasi bo'yicha oliy, dastlabki va o'rta natijalarni qo'lga kiritgan o'qituvchilar maoshiga 40-50 % lik ustamalar tayinlanganligi, chet tilini o'zlashtirishda eng yaxshi natijalarni qayd etgan maktablarga umumiy hisobda 850 million so'mdan iborat Prezident sovrinlarining ta'sis etilishi mamlakatimiz bo'ylab yaqin yillarda tilga berilayotgan e'tiborning yaqqol misolidir.

### ASOSIY QISM

Avvalambor, chet tilini o'rganish to'g'risida so'z yuritishdan oldin, ona tili va uning til o'rganishdagi ahamiyatini anglash muhimdir. Ona tili-millatning ko'zgusi, boshqa tillardan boy imkoniyatlari, tarixi, madaniyati va so'z san'ati, ma'no jihatlari bilan ajralib turadigan muhim axborot almashinuv vositasidir. U orqali o'zlik, qadriyatlar, urf-odatlar, madaniyat va asrlarni o'z ichiga olgan tarix qonlarimizga singadi. Tabiiyki, o'z tili imkoniyatlari, so'z va gaplar qurilishidan boxabar kishi chet tillarini o'rganishda qiynalmaydi, chunki J. Jalolov ta'kidlashicha, tillar o'rtasidagi fonetik va grafik timsollar turlicha bo'lishi mumkin, lekin ma'no va tushuncha o'zgarishsiz qoladi. Aytaylik, "olma" so'zi ingliz tilida "apple", nemis tilida esa "Apfel" shaklida namoyon bo'ladi, biroq bularning barchasida til o'rganuvchi ma'lum rangga ega (yashil, sariq, qizil), daraxtda o'suvchi meva ma'nosini anglaydi.

Chet tili-bu sun'iy muhit ta'siri ostida o'rganiladigan xorijiy til.

Metodika- bu biz pedagogika sohasida ko'p qo'llaydigan terminlardan biri bo'lib, uning 3 ta ma'nosi mavjud. Birinchisi, o'quv predmet sifatida ("Metodikadan 5 oldim"), ikkinchisi, ta'limda metodik usullar yig'indisi ("D. Begimqulovanning metodikasi menga juda yoqadi"), uchinchisi, ta'lim nazariyasi va maxsus fan sifatida ("Bu darslikda metodika yaxshi ekan") namoyon bo'ladi.

Hozirda ko'plab olimlar va pedagoglar bolalarning yosh xususiyatlarini chuqur o'rganib chiqmoqdalar. Olim E. Erikson ham bolalarda shaxs sifatida ularning "men" ining rivojlanish bosqichlarini guruhlariga bo'ladi: unga ko'ra har bir yoshdagi bolalarda yilma-yil salbiy va ijobiy jihatlar paydo bo'la boshlaydi. Bolalarda hayotining 1-yilida ishonch-ishonchsizlik hissi tug'ilsa, 2-3 yoshga to'lganda esa mustaqillik va qat'iyatsizlik yuzaga keladi. Bundan kelib chiqadiki, bola individ sifatida dunyoga kelishi bilanoq, ta'lim va tarbiya nazorati ostida bo'lishi barkamol avlodning yetishib chiqishida muhim rol o'ynaydi. Misol tariqasida, o'zining qat'iy o'qitish tizimiga ega bo'lgan rivojlangan davlatlar- Xitoy, Koreya, Yaponiyani olaylik, bolalar kuniga kamida 10 soat davomida hech qanday e'tirozlarsiz, faqat ta'lim bilan shug'ullanadilar, Ularning shiori esa mehnat, tartib va kattalarga hurmatdan iborat.

Mamlakatimizda ham keyingi yillarda kichik yoshdagi bolalarga ularning o'zlashtirish tempi, yoshi, salohiyati va qiziqishlariga asoslanib, til o'rgatish metodlari tubdan yangilanmoqda. Chunki hali tashqi dunyo haqida izlanishlar olib borayotgan, faoliyatning faqat o'yin turi bilan shug'ullanuvchi bolalar uchun grammatik qoidalar va formulalar, yozishga asoslangan mashqlar va testlar bolalar uchun ancha qiyinlik

qilishi va zerikish tug'dirishi hammaga ayon. Mashhur yozuvchi Abay Qo'nanboyev ham o'zining "Naqliya so'zlar" asarida bolalarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga alohida to'xtalib o'tgan. Uning fikricha, bolalar tug'ilganida ularda 2 odat paydo bo'ladi: biri- qorin to'qligi va maroqli hordiq bo'lsa, yana biri- tashqi olam haqida yetarlicha bilimga, vizual tasavvurga ega bo'lish ehtiyoji. Ya'ni ular o'zlariga notanish bo'lgan har qanday ob'ekt, ovoz, hodisa va insonlarni ko'rishga, ta'mini bilishga, eshitish va taqlid qilishga urinadilar. Shunga ko'ra, hozirgi zamon talablaridan kelib chiqqan holda, bolalarga zamonaviy texnologiyalar asosida ta'lim berish yetarlicha samara beradi, ular bilan parallel olib borilgan darslar, o'yin va taqdimotlar diqqatni tortibgina qolmay, uzoq vaqt davomida maroq bilan bilim olishga, media savodxon bo'lishga va bilimlarning xotirada uzoq muddat saqlanib qolishiga imkon beradi. Bunda multimedialli vositalardan (audio, video, matn, grafika, animatsiya) foydalangan holda darsni tashkillashtirish va tilning 4 ta aspektlarini (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish) bir vaqtda olib borish tez til ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, chunki sun'iy muhit tabiiy muhit (oila yoki ko'chada) kabi uzoq vaqt davom etmaydi, aksincha, o'qituvchi tomonidan ma'lum vaqt davomidagina tashkillashtiriladi. Bundan tashqari, turli o'rganilayotgan tilga oid videolar, multfilmlar va filmlar ham bolalarni shu tilni o'rganishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, real muhit bilan ta'minlaydi. Ayniqsa, uzluksiz va aniq maqsadga yo'naltirilgan ta'lim samaradorlikni maksimalashtiradi, bunda bir necha usullar tavsiya qilinadi:

1. Bolalar ongiga ta'sir ko'rsatish. Ular turli jarayonlarni ixtiyoriy bajarishni xush ko'radilar, lekin ota-ona yoxud pedagog ularni majburlasa, ular bunday vaziyatlardan qochishga intiladilar. Aslida esa kattalar bu til bolalarga nega kerakligi va kelajakda bu bilan nimalarga erishishlari mumkinligini tushuntirishlari, motivatsiya berishlari kerak. Chunki bolalar mavhum va tushunarsiz narsalarni xohlashmaydi.

2. Aniq maqsad sari harakatlanish. Bunda bolalarning ham qiziqishlarini inobatga olgan holda, ularga kattalar tomonidan kunlik, haftalik, oylik va yillik rejalar taqsimlanishi kerak.

3. Lug'atlar bilan ishlash. Mutaxassis bolalarga turli saytlar (Bamboozle), jonli o'yinlar masalan xonadagi jihoz va asboblarni ustiga ularning boshqa tildagi ekvivalentini yozib chiqish va muloqotda ham ishlatish, "Pantomima" metodi bilan ularga rol ijro ettirish kabilar zerikarli lug'at yodlash jarayonini mazmunli va qiziqarli odatga aylantirishi mumkin.

4. Turli dasturlar va texnologiyalardan foydalanish. Bizga tanish Duolingo, Speak Talk, Speak Pal, Ibrat Academy, Memrise kabi bepul ilovalar orqali kichik yoshdagi bolalar real vaqtda, istalgan joyda o'yinlar, quiz savollar, audiolar va dialoglar hamda shaxsiy o'qituvchi orqali o'zlari bilmagan holda til ko'nikmalarini shakllantiradilar, onlayn do'stlari bilan raqobatlashadilar va kunlik, haftalik, oylik statistika to'plab boradilar.

5. Takrorlash. Buyuk olim Abu Rayhon Beruniy ham “ Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir” deb ta’kidlagan edi. Har bir insonning xotirasi turlicha bo’lib, bolalar orasida super xotiralilarini uchratish noyob hodisadir. Shuning uchun bolalarning bilimlarini turli zamonaviy gadjetlar va aloqa vositalari orqali muntazam takrorlatish ularda miyaning tillar bilan ishlash funksiyasini oshiradi va bora-bora xotira yaxshilanib, so’z yodlash avtomatlashib boradi.

### XULOSA

Hozirgi kunda yangicha interfaol dasturlar orqali til o’rgatish metodlari va dasturlari bolalarning kommunikativ sifatlarini shakllantiradi, tezda 2 tilli “indigo” bo’lishlariga yordam beradi va shaxsiy xulosa qilishga, mantiqiy fikrlashga, o’zlashtirilgan bilimlarni analiz-sintez qilishni rivojlanishiga asos bo’ladi. Mamlakatimiz ta’lim tizimining ham maqsadi ommaviy salohiyat, bilim va ko’nikmalarni yuksaltirish, yetuk kadrlar tayyorlash va Vatanimiz rivoji uchun hissa qo’shuvchi ,avvalambor, insonlarni tarbiyalash, ta’lim berishdir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.J.Jalolov “Chet til o’qitish metodikasi” -"O’qituvchi” Toshkent - 2012.
- 2.M.Hasanova, O.Mamaziyayev “Chet tillarini o’rganishning samarali usullari” .
- 3.X.Ganiyeva, M.Mamarahimova “Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilini o’rgatish va hozirda chet tiliga bo’lgan e’tibor”.
- 4.F. Tursunmatova “Chet tilini o’qitish metodikasi”.
5. <https://kun.uz>
6. <https://n.ziyouz.com>
7. <https://iia-rf.ru>